AUTSORSING. TADBIRKORLAR UCHUN YANGI IMKONIYAT(MI?)

Husanov Rashid
Ohangaron shahar adliya bo‘limi boshlig‘i
https://doi.org/10.5281/zenodo.22560845

Annotatsiya

Ushbu maqolada autsorsing tushunchasi, uning kelib chiqish tarixi va davlat boshqaruvi tizimiga joriy etilishi tahlil qilinadi. Muallif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 12-iyundagi 306-sonli qarori misolida ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat korxonalarida autsorsing xizmatlarini tashkil etish mexanizmlarini yoritadi. Autsorsingning XX asr 70-yillarida AQShda paydo bo‘lishi, IT-autsorsing bozorining shakllanishi hamda hozirgi kunda turli sohalarga (IT, ishlab chiqarish, HR, ketering va boshqalar) tarqalishi ko‘rsatib beriladi. Maqolada autsorserlarni tanlashga qo‘yiladigan talablar, davlat xaridlari elektron tizimidagi maxsus sahifa hamda autsorsingga o‘tkazish uchun tasdiqlangan ustuvor yo‘nalishlar ro‘yxati batafsil bayon etiladi. Muallif xulosa sifatida autsorsing davlat xarajatlarini optimallashtirish, ortiqcha shtatlarni qisqartirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilishini, shuningdek kichik va o‘rta biznes uchun davlat buyurtmalari bozorida yangi imkoniyat yaratishini ta’kidlaydi.

Kalit so'zlar: autsorsing, davlat boshqaruvi, davlat xaridlari, davlat korxonalari, korrupsiyaga qarshi kurash, xizmatlar bozori, kichik va o‘rta biznes, IT-xizmatlar, xarajatlarni optimallashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 12-iyundagi “Ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat korxonalarida autsorsing xizmatlarini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 306-sonli qarori e’lon qilindi. Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan.

Xo’sh, autsorsing nima? U qanday vujudga kelgan va qanday maqsadlarda amalga oshiriladi? Autsorsing (Outsourcing) - kompaniya o'zining ba'zi funksiyalari yoki jarayonlarini boshqa tashqi firma yoki mutaxassislarga topshirishi. Ya'ni, "o'zim qilish o'rniga — mutaxassisga berish." Misol uchun bir zavod o'zining buxgalteriyasini ichki bo'lim orqali emas, balki alohida buxgalteriya firmasi orqali yuritishi autsorsing xisoblanadi. Ushbu g’oya dastlab XX asrning 70-yillarida AQSHda yirik ishlab chiqarish kompaniyalari xarajatlarni kamaytirish maqsadida paydo bo’ladi. 80-yillarga kelib Ross Perot

tomonidan asos solingan EDS (Electronic Data Systems) kompaniyasi IT-autsorsing bozorini shakllantirishda muhim va hal qiluvchi rol o'ynadi. Dunyoga mashxur General Motors (GM) gigant kompaniyasi o'z IT infratuzlmasini shartnoma asosida EDSga topshiradi. XXI asrda IT autsorsing uchun "katta portlash" yuz berdi, Hindiston dunyoning eng yirik IT autsorserlari joylashgan mamlakatga aylandi. Bugungi kunda autsorsing nafaqat axborot texnologiyalalari sohasida, balki, ishlab chiqarish, HR, rekruting, ketering va biznesni boshqarish sohalarida ham amalga oshirilmoqda.

Nima uchun autsorsing xizmatlarini tartibga solish zarurati vujudga kelmoqda? Eng avvalo bu xarajatlarni tejash va samarali sarflashga imkon yaratadi. Shuningdek, buyurtmachi ikkinchi darajali vazifalarni amalga oshirishni autsorserga topshirgan holda e'tiborini o'zining asosiy maqsadlariga qaratadi. Bu esa o'z navbatida buyurtmachi tomonidan asosiy faoliyat turiga ko'proq ahamiyat berish va ishlar, xizmatlar sifatini oshishiga olib keladi. Bundan tashqari buyurtmachi o'zida yo'q bilimlarga ega firmalar xizmatidan foydalanib faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda butun dunyoda bo'lgani kabi asosan IT xizmatlari uchun buyurtmachilar tomonidan autsorerlar jalb qilinmoqda. Buning asosiy sababi, axborot texnologiyalari sohasida mamlakatda yaratilgan keng imkoniyatlardir. Hukumat tomonidan tashkil etilgan IT markazlar va ularga berilgan imkoniyatlar, soliq imtiyozlari, turli pereferensiyalar yoshlarni aynan mazkur sohani chuqurroq o'rganishiga yo'l ochmoqda. Bundan tashqari IT xizmatlari eng oson eksport qilinadigan soha xisoblanadi. Bu uchun hech qanday logistika, transport harajatlari, shuningdek, sertifikatlashtirish jarayonlari talab etilmaydi.

Yuqorida ta'kidlangan "Ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat korxonalarida autsorsing xizmatlarini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ko'ra, 2026-yil 1-sentabrdan boshlab davlat xaridlari elektron tizimlarida Autsorsing xizmatlarini tashkil etish bo'yicha maxsus sahifa ishga tushiriladi. Autsorsing xizmati autsorserni aniqlash, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymaslik, autsorser tomonidan funksiyalarning sifatli bajarilishi, davlat buyurtmachisining funksiyalarini bajarish bilan band bo'lgan xodimlar sonini (shtatini) qisqartirish shartlari asosida amalga oshiriladi. Autsorserlar davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq aniqlanadi. Bu turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchilarni tanlab olish jarayonlari ishtirokchilari bir nechta talablarga javob berishi zarur. Nomzodlar tadbirkorlik subyekti sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi, autsorsingga beriladigan funksiyalar yo'nalishida kamida olti oy faoliyat olib borgan bo'lishi, autsorsing shartnomasini bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, yetarli ish tajribasiga ega bo'lgan malakali kadrlar hamda boshqa resurslarga ega bo'lishi, soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lmasligi,

ishtirokchining sud qarorlari bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi eng asosiy talablar sirasiga kiradi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat korxonalarida autsorsingga o’tkazish uchun ustuvor yo’nalishlar ro’yxati ham yuqoridagi qaror asosida tasdiqlangan. Ro’yxatga ko’ra:

- bino va inshootlarni saqlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish hamda joriy ta’mirlash ishlari, shu jumladan:

landshaft dizayni va hududlarni parvarishlash xizmatlari;

fasadlarni tozalash va yuvish xizmatlari.

- Santexnika, elektr ta’minoti, isitish va shamollatish tizimlariga xizmat ko‘rsatish hamda ta’mirlash ishlari.
- Binolarni tozalash, hududlarni obodonlashtirish va sanitariya-gigiyena xizmatlari.
- Kir yuvish xizmatlari.
- Ovqatlantirish xizmatlarini tashkil etish.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ko‘rsatish, shu jumladan:

kompyuter texnikasiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash;

tarmoqlarni boshqarish va texnik qo‘llab-quvvatlash;

dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash;

ma’lumotlarni saqlash va zaxiralash (bulutli xizmatlar).

- Madaniy yoki sport tadbirlarini tashkil etish.
- Murojaatlar bilan ishlaydigan “0000” qisqa raqamli “Call-markaz” xizmatlari.
- Arxiv ishi xizmati.
- Transport va logistika xizmatlari, shu jumladan:

avtotransport vositalarida yo‘lovchilarni tashish xizmatlari (misol uchun, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga olis hududlardan qatnaydigan o‘quvchilar uchun avtobuslar qatnovini tashkil etish, “IT-shaharcha”larga yoshlarni tashish xizmatlari);

avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlari;

yo‘l chiziqlarini chizish, yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o‘rnatish, almashtirish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish xizmatlari.

- O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ishlari.
- Kadrlarni o‘qitish, malaka oshirish va treninglar tashkil etish ishlari.
- Keng jamoatchilikka axborot berish (PR, media, reklama) xizmatlari.
- Laboratoriya va tahlil xizmatlari (sog‘liqni saqlash, ekologiya yoki qishloq xo‘jaligi sohalaridagi laboratoriya tahlillari).
- Tibbiy buyumlarni zararsizlantirish.
- Oqava suv xizmatlari autsorsingga berilishi nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, autsorsing endilikda faqat xususiy sektorga xos amaliyot bo‘lmay, davlat boshqaruvi tizimiga ham izchil tarzda joriy etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 306-sonli qarori bu jarayonni tasodifiy emas, balki aniq huquqiy asosga qurilgan, shaffof va raqobatga asoslangan tizimga aylantirishga xizmat qiladi. Davlat organlari va korxonalari asosiy vazifasiga bevosita aloqador bo‘lmagan yordamchi funksiyalarni — tozalash, ta’mirlash, transport, oshxona, IT-xizmatlar va boshqalarni — malakali tashqi ijrochilarga topshirish orqali o‘z kuch va resurslarini asosiy vazifalarga jamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, davlat xarajatlarini optimallashtirish, ortiqcha shtat birliklarini qisqartirish, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytirish hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish kabi bir qancha ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon xususiy tadbirkorlik, xususan, kichik va o‘rta bizneslar uchun ham davlat buyurtmalari bozorida yangi va barqaror nisha yaratadi. Albatta, islohotning yakuniy samaradorligi autsorserlarni tanlash jarayonining haqiqatda shaffof kechishiga, nazorat mexanizmlarining samarali ishlashiga hamda tomonlar o‘rtasidagi mas'uliyatning aniq taqsimlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga qaramasdan ushbu qadam O‘zbekistonda davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish va xizmatlar bozorini rivojlantirish yo‘lidagi muhim voqealardan biri sifatida baholanishi mumkin.